

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI SANITARIYA  
EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA  
JAMOAT SALOMATLIGI  
XIZMATINING  
TOSHKENT SHAHAR  
MIROBOD TUMAN BO'LIMI



MINISTRY OF HEALTH OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN UNDER  
TASHKENT CENTER MIRABAD  
DISTRICT OF SANITARY AND  
EPIDEMIOLOGICAL WELFARE AND  
PUBLIK  
HEALTH SERVICE

100034, Toshkent, Sarakulko'chasi 76-uy,  
Telefon 71-283-36-21, Fax 71-283-36-21  
e-mail: [info.tash\\_cgse@minzdrav.uz](mailto:info.tash_cgse@minzdrav.uz)

76, Sarakul str., Tashkent, 100034  
Phone 71-283-36-21 Fax 71-283-36-21  
e-mail: [info.tash\\_cgse@minzdrav.uz](mailto:info.tash_cgse@minzdrav.uz)

7«1»2023 yil.

7-14-199-SES/2023-son

## BUYRUQ

### Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining Mirobod tuman bo'limining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, SEO va JSX Toshkent shahar boshqarmasining 2022-yil 23-avgustdagi 134-sonli buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

- Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyati to'g'risida nizom 1-ildovaga muvofiq;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom 2-ildovaga muvofiq;
- Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom 3-ildovaga muvofiq;
- Odob-ahloq qoidalari to'g'risida nizom 3A-ildovaga muvofiq;
- Davlat haridlarini o'tkazish to'g'risida nizom 4-ildovaga muvofiq;
- Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma 5-ildovaga muvofiq;
- Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 6-ildovaga muvofiq;
- Kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma 7-ildovaga muvofiq;
- Korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish hamda ko'rib chiqish reglamenti 8-ildovaga muvofiq;
- Korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilganda xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament 9-ildovaga muvofiq;
- Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyati 10-ildovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha mas'ul xodimga:

- Bir hafta muddatda mazkur buyruq bilan tasdiqlangan hujjatlarning

mazmun-mohiyati barcha xodimlar e'tiboriga yetkazilsin.

4. Jamoatchilik bilan ishlash bo'limiga:

- Sanitariya-epidemiologiya xizmati veb saytiga korrupsiyaning oldini olishga doir ma'lumotlar kiritib borilishi ta'minlansin.

5. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi, barcha bo'lim mudirlariga:

- xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi talablarga rioya etilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilsin.

Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

|                                                                                   |                                                                                                                                                  |                                  |
|-----------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------|
|  | Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan.<br>Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang. |                                  |
|                                                                                   | Imzolovchi F.I.SH.                                                                                                                               | DILNOZA AXMEDOVA BURXANIDDINOVNA |
|                                                                                   | Imzolangan sana                                                                                                                                  | 07.01.2023 12:22                 |
|                                                                                   | Hujjat kodi                                                                                                                                      | <b>IQ3588521683</b>              |
|                                                                                   | Hulosa kodi                                                                                                                                      | <b>PW4584208183</b>              |